

## “VASILATU-N-NAJOT”NING TARIXIY-BADIIY AHAMIYATI

Zarina Nizomjonova,

Qarshi davlat universiteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sulaymon Chalabiyning hayoti va ijodiga oid muhim ma'lumotlar yoritilgan. Xususan, uning mashhur “Vasilatu-n-najot” asarining yaratilish sabablari, yozilishiga turki bo'lgan ijtimoiy-diniy omillar tahlil qilingan. Shuningdek, asarning tarkibiy tuzilishi, mavzuviy bo'linishi hamda g'oyaviy-badiiy xususiyatlari ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida asarning turkiy mavlud adabiyotidagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sulaymon Chalabiy, Vasilatu-n-najot, mavlud, turkiy adabiyot, diniy-badiiy asar, asar tarkibi, matn tahlili, adabiy meros.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются жизнь и творческое наследие Sulaymon Chalabiy. Особое внимание уделяется причинам создания его известного произведения “Vasila al-najat”, а также социально-религиозным факторам, повлиявшим на его написание. Кроме того, анализируются структура произведения, его композиционные особенности и идейно-художественные характеристики. В результате исследования раскрывается место и значение данного произведения в тюркской маулидной литературе.

**Ключевые слова:** Сулейман Челеби, Васи́ла ан-наджат, маулид, тюркская литература, религиозно-художественное произведение, структура произведения, текстовый анализ, литературное наследие.

**Annotation.** This article examines the life and literary legacy of Sulaymon Chalabiy. Particular attention is given to the reasons behind the creation of his well-known work “Vasila al-najat”, as well as the socio-religious factors that influenced its composition. In addition, the structure of the work, its compositional features, and its ideological and artistic characteristics are analyzed. The study reveals the role and significance of this work in Turkic mawlid literature.

**Keywords:** Suleiman Chalabi, Vasila al-najat, mawlid, Turkic literature, religious-literary work, structure of the work, textual analysis, literary heritage.

**Kirish.** Turkiy mavludnavislik an'anasining eng mashhur namoyandalaridan biri bo'lgan Sulaymon Chalabiyning shaxsiy hayoti va tarjimaiy holiga oid ma'lumotlar manbalarda juda kam va ko'p jihatdan taxminiy xarakterga ega. Tadqiqotchilar tomonidan uning nasabiga doir turli qarashlar ilgari surilgan bo'lsa-da, ushbu masalada aniq va qat'iy xulosaga kelish mushkuldir. Ayrim manbalarda Sulaymon Chalabiyning otasi Usmonlilar davlatida yuqori mansab egallagan vazir Ahmad Podsho bo'lgani haqidagi fikrlar uchraydi, biroq bu ma'lumotlar tarixiy jihatdan to'liq isbotlanmagan. Sulaymon Chalabiyning tug'ilgan sanasi ham aniq qayd etilmagan. Biroq uning “Vasilatu-n-najot” (Mavlud) asarini hijriy 812-yil (milodiy 1409-1410) atrofida yozib tugatgani va bu vaqtda taxminan 60-65 yoshlarda bo'lgani haqidagi ma'lumotlarga tayangan holda, tadqiqotchilar uning hijriy 747-752 (milodiy 1346-1351) yillar oralig'ida tug'ilgan bo'lishi mumkinligini taxmin qiladilar. Ushbu taxmin Sulaymon Chalabiyning ijodiy faoliyati va tarixiy davr bilan uyg'un holda shakllangan ilmiy qarash sifatida qabul qilinadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Sulaymon Chalabiyning ismidagi “Chalabiy” unvoni ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu so'z o'sha davr turkiy muhitida ilmiy, ma'rifatli, savodli shaxs ma'nosida qo'llangan bo'lib, uning diniy va adabiy bilimlarga ega bo'lgan zot

ekanini anglatadi. Bu holat Sulaymon Chalabiyning mavlud asarini yozishda Qur'on, hadis, siyrat va tasavvufiy manbalardan puxta xabardor bo'lganini ko'rsatadi. Shoirning vafot sanasi ham aniq ma'lum emas. Biroq mashhur bibliograf olim Bursali M.Tahir tomonidan keltirilgan ma'lumotga ko'ra, Sulaymon Chalabiyning vafot yili "rahat-ı ervah" iborasining abjad hisobi asosida hijriy 825-yil (milodiy 1422) deb ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumot ilmiy doiralarda ehtiyotkorlik bilan qabul qilinadi va taxminiy sana sifatida tilga olinadi. Sulaymon Chalabiyning qabri Bursa shahrida, Chekirge yo'li ustida, Eski Kaplija yaqinida joylashgan Yog'urtlu Baba oldidagi tepalikda joylashgani ma'lum. Bu holat uning Bursa madaniy-adabiy muhitiga yaqin bo'lganini va shu hududda ijod qilganini ko'rsatadi. Bursa o'sha davrda Usmonlilar davlatining muhim ilmiy va diniy markazlaridan biri bo'lib, Sulaymon Chalabiyning shakllanishida bu muhit muhim rol o'ynagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Turk adabiyotida mavlid janri ancha keng tarqalgan bo'lib, bu yo'nalishda qalam tebratgan shoirlar soni nihoyatda ko'pdir. Latifiyning mashhur "Tazkirat ush-shuaro" asarida qayd etilishicha, XVI asrdayoq mavlid yozgan shoirlar soni yuz nafarga yaqin bo'lgan. Keyingi davrlarda ham mazkur janrda asarlar yaratilgan bo'lsa-da, bugungi kungacha yetib kelgan mavlidlar soni cheklangan. Tadqiqotchilarning fikricha, hozirgi kunda mavjud mavlid asarlarining soni taxminan o'ttiz atrofidadir. Jumladan, bu sohada muhim ilmiy tadqiqot olib borgan Necla Pekolcay o'z doktorlik ishida mavlidlar sonini yigirma to'qqizta deb ko'rsatadi. Keyinchalik aniqlangan ayrim yangi namunalar hisobga olinsa, bu ko'rsatkich o'ttizdan ortiq ekanini ko'rish mumkin.

**Tahlillar va natijalar.** Mavlid yozgan shoirlar orasida XV asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan Hamdiy (Akshamsuddin o'g'li Hamdulloh) ma'lum darajada istisno sifatida tilga olinadi. Ammo umuman olganda, bu janrda ijod qilgan shoirlar orasida birinchi darajali, yuksak shuhrat qozongan adiblar deyarli uchramaydi. Tadqiqotchilar buning sababini buyuk shoirlarning Sulaymon Chalabiy tomonidan yaratilgan "Vasilatu-n-najot" (Mavlud) asariga bo'lgan chuqur hurmat va ehtiromi bilan izohlaydilar. Ayni shu e'tibor natijasida yirik shoirlar bu yo'nalishda qalam tebratishdan tiyilgan bo'lishlari ehtimoldan xoli emas.

Sulaymon Chalabiy va uning "Mavlid"i qisqa vaqt ichida butun turk dunyosiga yoyilib, asrlar davomida susaymagan shuhratga erishdi. Ushbu e'tibor va e'tirof bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, asar hanuz diniy-ma'naviy hayotda muhim o'rin tutib kelmoqda "Vasilatu-n-najot" (Mavlud) nafaqat turk tilida, balki boshqa tillarga ham tarjima qilingan. Jumladan, asarning arab, alban, bosniy, yunon, cherkes tillaridagi tarjimalari, shuningdek, F.Lyman Mac Callum tomonidan amalga oshirilgan ingliz tilidagi manzuma tarjimasini mavjud. Bundan tashqari, Sulaymon Chalabiy "Mavlid"ining kuchli ta'siri ostida kurd tilida ham Mavlid asari yaratilgani qayd etiladi.

Sulaymon Chalabiy “Mavlud”ining xalq orasida keng tarqalishida uni oddiy kitob tarzida o‘qishdan ko‘ra, yoqimli ovozi hofizlar tomonidan maqom asosida ijro etilishi muhim omil bo‘lgan. Aynan shu ijro an‘anasi asarning xalq ruhiga singib ketishiga, keng omma orasida tez va mustahkam yoyilishiga xizmat qilgan. Sulaymon Chalabiyning “Vasilatu-n-najot” (Mavlud) asari Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning boshqa payg‘ambarlardan ustun maqomga ega ekanligini badiiy va aqidaviy jihatdan asoslab berish maqsadida yozilgan. Asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan asosiy sabablar haqida mumtoz manbalarda, xususan, Latifiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarida batafsil ma‘lumot beriladi. Unda keltirilishicha, Bursa shahrida bir voiz jamoat oldida Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ni boshqa payg‘ambarlardan ajratib ko‘rsatmaydigan, u zotning fazilat va ustunligini inkor etuvchi johilona fikrlarni ilgari surgan. Ushbu holat Sulaymon Chalabiy chuqur tashvishga solgan va u Payg‘ambar (s.a.v.)ning sayyid ul-anbiyo, ya‘ni barcha payg‘ambarlarning sardori ekanini badiiy yo‘sinda isbotlash niyatida mavlud asarini yaratishga kirishgan. Asarning yozilishiga sabab bo‘lgan ikkinchi muhim omil – o‘sha davrda ahl as-sunna aqidasi zaiflashtirishga qaratilgan turli diniy-falsafiy oqimlar ta‘sirini kamaytirish, hatto bartaraf etish istagi bilan bog‘liqdir. Usmonlilar davlati Fetret davridan endigina chiqqan, siyosiy va ijtimoiy jihatdan zaiflashgan bir paytda diniy, fikriy va mafkuraviy qarashlar o‘rtasida keskin kurashlar kechayotgan edi. Ana shunday murakkab tarixiy vaziyatda Sulaymon Chalabiy ochiq va qat‘iy tarzda ahl as-sunna yo‘lini qo‘llab-quvvatlagan, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) shaxsini markazga qo‘ygan holda, jamiyatni birlashtiruvchi va e‘tiqodiy barqarorlikni mustahkamlovchi asar yaratgan. Shu jihatdan “Vasilatu-n-najot” (Mavlud) nafaqat diniy-marosimiy matn, balki mafkuraviy ahamiyatga ega bo‘lgan adabiy asar sifatida ham qadrlanadi. Asar o‘z davrida ahl as-sunna qarashlarini mustahkamlash orqali diniy tafakkurning parokandalashuviga qarshi xizmat qilgan va bilvosita davlat barqarorligini saqlashga hissa qo‘shgan.

“Vasilatu-n-najot” (Mavlud) asarining yozilgan vaqti haqida muallifning o‘zi asarning so‘nggi qismida aniq ma‘lumot beradi. Unda quyidagi bayt keltiriladi:

Hem sekiz yuz on ikide tarihi,

Bursa‘da oldi tamam bu iy ahi. [1:10]

Mazkur baytdan ma‘lum bo‘lishicha, asar hijriy 812-yilda (milodiy 1409–1410) Bursa shahrida yozib tugallangan. Bu holat “Vasilatu-n-najot” (Mavlud)ning tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi hamda asarni Usmonlilar davri diniy-adabiy muhitining muhim adabiy mahsuli sifatida baholash imkonini beradi.

Sulaymon Chalabiyning “Vasilatu-n-najot” (Mavlud) asari shakl va mazmun jihatidan o‘ziga xos badiiy tuzilishga ega bo‘lib, u arab tilidagi mansur (nasriy) duo bilan boshlanadi. Asarning asosiy qismi esa masnaviy shaklida yozilgan. Shu bilan birga, muallif ayrim bo‘limlarda janrlararo uyg‘unlikka ham murojaat qiladi. Jumladan, tug‘ilish bo‘limining ikkinchi fasli oxiri va uchinchi fasli qasida shaklida berilgan. Bundan tashqari, tug‘ilish bo‘limi yakuniga o‘n baytdan iborat alohida madhiya ilova qilingan bo‘lib, bu hol

asarda Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) sha‘nini ulug‘lash g‘oyasining markaziy o‘rinda turganini ko‘rsatadi. Asarning vazni ramal bahriga mansub bo‘lib, “foilotun, foilotun, foilun” vaznida yozilgan. Madhiya qismi esa mazmuniy va ohang jihatidan ajralib turadi hamda “maf’ulu, failotu, mafailu, failin” vaznida bitilgan. Bu vazn xilma-xilligi asarning badiiy ta’sirchanligini kuchaytirib, uni marosimiy ijro uchun ham qulay holga keltirgan.

“Vasilatu-n-najot” (Mavlud) XV asr Eski Anadolu turk tilida yozilgan bo‘lib, asarda o‘sha davrga xos talaffuz va grammatik xususiyatlar yaqqol saqlangan. Muallif sodda va ravon tilni tanlagan, arabcha va forsha so‘zlardan, ayniqsa murakkab izofa va tamlamalardan nisbatan kam foydalangan. Bu esa asarning xalq orasida tez yoyilishiga, yod olinib, og‘zaki ijroda keng qo‘llanishiga zamin yaratgan. Tuzilishiga ko‘ra, “Vasilatu-n-najot” (Mavlud) to‘qqiz bo‘limdan iborat bo‘lib, har bir bo‘lim Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning hayoti, siyrati va fazilatlarini yoritishga xizmat qiladi. Ushbu bo‘limlar o‘zaro mantiqiy va mazmuniy uyg‘unlikda joylashgan bo‘lib, asarning yaxlit kompozitsiyasini ta‘minlaydi.

“Vasilatu-n-najot” asarining asil matni 730 baytdan iborat bo‘lib, mazkur mavlud nafaqat mazmuni, balki shakl va poetik qurilishi jihatidan ham o‘ziga xos adabiy jarayon mahsuli hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, Sulaymon Chalabyi ushbu asarni yaratishda avvalgi siyrat va diniy-adabiy an‘analardan samarali foydalangan. Jumladan, asarning yuzaga kelishida Mustafa Darir tomonidan 1378-1388-yillar oralig‘ida yozilgan “Siyer” asarining kuchli ta’siri seziladi. Ayniqsa, “Siyer” tarkibida Payg‘ambarimiz (s.a.v.) tavalludini madh etuvchi qasida shaklidagi manzuma Sulaymon Chalabiyning e’tiborini tortgan. Shoir mazkur manzumaga javoban “Qasida-i Meliha” nomi bilan nazira yozgani bilan ham adabiy an‘anaga sodiqligini namoyon etadi. Bu holat “Vasilatu-n-najot”ning tasodifiy yaratilmaganini, balki mavjud diniy-badiiy tajriba asosida pishiq holda shakllanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Sulaymon Chalabi ijodida Oshiq Posho ta’siri ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayrim tadqiqotlarda “Mavlud” asaridagi ba’zi baytlarning Oshiq Posho qalamiga mansub “G‘aribnoma”dagi ayrim baytlarga mazmun va ifoda jihatidan yaqinligi qayd etilgan. Biroq shuni alohida ta’kidlash lozimki, garchi “Vasilatu-n-najot” avvalgi asarlar bilan mushtarak jihatlarga ega bo‘lsa-da, u mustaqil badiiy yaxlitlik va yuksak poetik qudrati bilan ajralib turadi. Sulaymon Chalabi tomonidan yaratilgan “Vasilatu-n-najot” asari qat’iy reja asosida tuzilgan bo‘lib, unda Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) siyratining asosiy bosqichlari ketma-ketlikda, badiiy-nazmiy shaklda yoritilgan. Asarning eski va asliy matni bilan keyingi davrlarda shakllangan yangi va o‘zgartirilgan matni o‘rtasida bo‘limlar tartibi, hajmi hamda ayrim fasllarning berilishida sezilarli farqlar mavjud. Asliy matn munajat va duo bilan boshlanib, unda avvalo Ollohga iltijo, so‘ng muallifning o‘zi uchun duo so‘rashi va asarni yozishdagi kamchiliklar uchun uzr bildirilishi o‘rin olgan. Bu holat klassik islomiy-nazmiy asarlarga xos an‘anaviy boshlanish usulini aks ettiradi. Shundan keyin olamning yaratilish sababi, Muhammad (s.a.v.) ruhining yaratilishi, Odam Ato va Payg‘ambar nuri silsilasi izchil tarzda bayon

qilinadi. Asarning markaziy qismini Payg‘ambarimizning tug‘ilishi (velodat) tashkil etib, ushbu bo‘limda Mustafó (s.a.v.)ning dunyoga kelishi chog‘ida yuz bergan mo‘jizalar, ulug‘lovchi baytlar va alohida badiiy qiymatga ega bo‘lgan “Qasida-i Meliha” keltiriladi. Ayniqsa, bu qasida mazmuni va vazn jihatidan asarning boshqa qismlaridan ajralib turib, Payg‘ambar siymosini yuksak badiiy darajada madh etadi:

İşidün dahı acâib kudreti

Kudret-i Hak'dan tutun hem ibreti

Hak Teâlâ emr kıldı ol gice

Hep yaratılmış kılalar zîneti

Didiler Rıdvân'a tiz turma dur

Hoş bezen hûr u kusûr-ı cenneti

Kim bu gice ol Habib-i Hak gelür

Hem yağar halk üzre Hakk'un rahmeti...[1:27]

Keyingi bo‘limlarda Payg‘ambarimizning mo‘jizalari, Me’roj voqeasi, hijrat, axloqiy fazilatlar, vasiyatlar hamda vafotlar ketma-ket yoritiladi. Asliy matnda ayrim boblar ichida fasllar mavjud bo‘lib, ular asarning didaktik va tasavvufiy yo‘nalishini kuchaytiradi. Asarning yakuniy qismida kitob xotimasi berilib, unda o‘quvchini salovat aytishga da’vat etuvchi umumiy xulosa ruhidagi baytlar keltiriladi. Bu jihat mavlud janrining asosiy maqsadi – Payg‘ambar muhabbatini mustahkamlash va diniy-e’tiqodiy hissiyotni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Xulosa** qilib aytganda, Sulaymon Chalabiyning “Vasilatu-n-najot” asari mavlid janrining eng yetuk namunasi sifatida turkiy adabiyotda mustahkam o‘rin egallaydi. Asar diniy e’tiqod, badiiy mahorat va xalqona ifodaning uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, nafaqat o‘z davrining, balki barcha zamonlarning yuksak adabiy-ma’naviy yodgorligi hisoblanadi. Aynan shu jihatlar uni keyingi mavlid asarlari uchun asos va mezon darajasiga ko‘targan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Süleyman Çelebi. Mevlid-i Şerif. Merve yayınları - 2020. Sayfa: 48.
2. Murat Cemalettin Necipoğlu. Mevlid icrâsında İstanbul tavrı. Yüksek lisans tezi. (2501181812) İstanbul - 2021. S-210.
3. Süleyman Çelebi. Mevlid(Vesilatu-n-najot). İstanbul,1990. Sayfa:600.
4. Necla Pekolcay, Türkçe Mevlid Metinleri (doktora tezi, 1950), İÜ Ed.Fak. a.mlf. – H. Fuchs, “Mevlid”, İA, VIII, 175.
5. Bilal Kemikli.Mevlid Külliyyatı 3Ciltli. Diyanet İşleri Başkanlığı. İstanbul - 2016. Sayfa: 1236.
6. Ahmed Aymutlu, Süleyman Çelebi ve Mevlid-i Şerif, İstanbul 1958, Sayfa:275.
7. Alimulla Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. Toshkent, 2000 – 143 b.
8. Ahmet Özel. Mevlid: Tarihi ve dımı hükmü. Dıvan – 2002. B-12.
9. Abdulkerim Abdulkadiroğlu Armağanı. Eski Türk Edebiyatı Araştırmaları Dergisi[ESTED]. Cilt: 5 Sayı: 3 Aralık 2022 ss. 1374-1393